

## KLASTERLI TA'LIM TIZIMINI JORIY ETISH ZARURIYATI

**Norov Odiljon Murodullayech***QMII akademik litsey direktorning òquv ishlari buyicha òrinbisari***Muminov Safar Jòraqul ògли***QMII akademik litsey matematika òqituvchisi***Almardanova Zebo Hamzayevna***QMII akademik litsey inglez tili òqituvchisi*

**Annotatsiya:** O'zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarning erta ijtimoiy moslashuvlariga masalalari belgilangan. Yangi ta'lism siyosatini amalga oshirishning muhim strategik mexanizmi sifatida ta'lism muassasalarini o'quv klasteriga birlashtirish masalalari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** ta'lism transformatsiyasi, inklyuziya, model, ta'lism-tarbiya makoni, korreksion va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, mexanizm.

**KIRISH**

Ta'lism muassasalarini o'quv klasteriga birlashtirish vamuvofiglashtirish maxsus ta'lism tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ilmiy va o'quv klasterini aniqlashda eng muhim mezon uning barcha tarkibiy qismlari uchun yagona umumiyl maqsadning mavjudligi bo'lib, u amalda birlashgan ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy-ma'rifiy loyihalarda ifodalanishi mumkin bo'lib, bu davrda ishtirokchilarda ijobiy fazilatlar, xususan, o'quvchilarning har birlari uchun va xuddi shuningdek, klasterga kiritilgan tashkilotlarning yangi hayotiy, ijtimoiy vakolatlari shakllanadi.

Klaster doirasidagi hamkorlik ijtimoiy axloqiy me'yordarga muvofiq, ixtiyoriy ravishda, o'zaro manfaatlarni hurmat qilgan, imkoniyatlarni rivojlantirish maqsadida tashkil yetiladi. Mazkur yondashuv asosida ta'lism tizimini rivojlantirish orqali subyektlar sheriklikni kuchaytirib, bir-biriga o'zaro ta'sir qilgani holda, alohida unsurlar, shuningdek, klasterning afzalliklarini ham kuchaytiradi.

Klaster yondashuvi boshqa yondashuvlarga nisbatan inkor yetib bo'lmaydigan afzalliklarni beradi va yangi ta'lism siyosatini amalga oshirishning muhim strategik mexanizmiga aylanadi.

**ADABIYOTLAR SHARHI**

Ta'lism sohasidagi islohotlar bilan shug'ullangan olim Maykl Fullan ta'lism siyosatida keng miqyosli islohotlarga erishish va sifat samaradorligini ta'minlash borasida fikr bildirar ekan, agar o'qituvchilar faqat o'z sinflari darajasida fikrlasa va boshqa o'qituvchilar va butun maktabning muvaffaqiyatlaridan mutlaqo manfaatdor bo'lmasa; agar maktab direktorlari o'z maktablari darajasida o'ylasa va o'z

tumanlaridagi boshqa direktorlar va maktablarning muvaffaqiyatlaridan mutlaqo manfaatdor bo‘lmasa; agar tuman mutasaddilari rejalarini faqat o‘z tumanlari doirasida amalga oshirsa va boshqa tumanlarning muvaffaqiyatlaridan mutlaqo manfaatdor bo‘lmasa, keng miqyosli ta’lim islohotiga erishib bo‘lmaydi. Tadqiqotchining ushbu fikrlari tizimni klaster yondashuvi asosida boshqarishni taqozo qiladi. Ushbu modelning pirovard maqsadi subyektlarni butun tizimning muvaffaqiyatiga jalb qilish, o‘zgarish jarayonlarida bevosita ishtirok etishni ta’minlashdan iboratdir [1].

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri uzlucksiz ta’lim tizimidagi barcha ta’lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo‘lib, ularning birqalikdagi taqsimlangan faoliyati pedagogik ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish imkoniyatini beradi. Binobarin, klasterning asosiy maqsadi o‘z tarkibiga kiruvchi ta’limiy-ilmiy-innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darjasini bilan, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta’lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega zamonaviy ta’lim mutaxassislarini tayyorlash uchun birlashtirishdir [2].

Pedagogik ta’lim rivojlanishining klaster modeli ta’lim berish, o‘quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta’lim va tarbiya uzviyligi bilan bog‘liq umumiy yo‘nalishlarda faoliyat olib boradi. Ayni paytda bu umumiy yo‘nalishlar ta’limni boshqarish va tashkillashtirish, ta’lim turlari va yo‘nalishlari, uzviylik va integratsiyani ta’minalash, o‘qitish metodlari va vositalari kabi yo‘nalishlarda xususiylashadi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, ta’lim sifatining klaster boshqaruvi alohida subyektlar darajasidan o‘sib chiqib, o‘sha subyekt joylashgan mintaqaning ta’lim sifatini oshirishga yo‘naltirilgan kompleks yondashuvdir. Zero, hududning salohiyatini oshirmsandan turib alohida subyektlar bilan keng miqyosli samaradorlikka, islohotga erishib bo‘lmaydi. Pedagogik ta’lim innovatsion klaster modeli shunisi bilan ham mamlakatning pedagogik ilm-fani rivoji uchun zarur hisoblanadi [3].

Mintaqaviy darajadagi ta’lim sifatini boshqarishda klaster yondashuvidan foydalanish mintaqaviy tizimlar va ta’lim muassasalarining hamkorlik muhitini shakllantirish, zahira kuchlaridan foydalanishni optimallashtirish hisobiga xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi hamda ilg‘or tajribalarni rivojlantirishni kuchaytirishga yo‘naltiriladi. Klaster aloqalari hamda raqobat muhiti innovatsion rivojlanish, loyiha faoliyati yo‘nalishlari va sur’atlariga, shuningdek, klasterning ichki tarkibiy qismlarini istiqbolli rivojlantirishga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida mintaqaning umumiy ta’lim sifatini boshqarish tushunchasiga quyidagicha ta’rif berildi [4]: mintqa umumiy ta’lim sifatining klaster boshqaruvi –

butun mintaqaning umumiyligi ta'limga sifati jarayoniga va uning asosiy elementlariga, xususiyatlari (subjektivligi, mazmuni, tuzilishi, dinamikasi, shaxs, jamiyat va davlat talablariga muvofiqligi) insonparvarlik, uzlucksizlik, demokratlashtirish g'oyalalariga asoslangan zamonaviy ta'limga yangilash va rivojlantirish maqsadida kompleks, yo'naltirilgan va muvofiqlashtirilgan ta'sir.

### XULOSA VA MUNOZARA

Ushbu ta'rif va tavsiflardan shu narsa anglashiladi, raqobat ta'limga tizimi uchun xos obyektiv jarayon hisoblanadi. U, shuningdek, innovatsiyalarni tezlik bilan o'zlashtirish vaishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etishni ham talab qiladi. Klaster ta'limga sohasi uchun innovatsiya bo'lib, uning o'zlashtirilishi sohaning raqobatbardoshligini oshirish bilan birga, uning tezkorligi va zamonga moslashuvchanligini ham ta'minlaydi.

O'qitishning klaster usulida ochiqlik, oshkorlik va samaraga intilish metodlari birlamchi hisoblanadi. Unga ko'ra, ta'limga beruvchi va ta'limga oluvchilar o'rtasida hamkorlik asoslari birlamchi bo'ladi. O'qituvchi nazariy va amaliy ko'nikmalarni berish bilan cheklanmaydi, kasincha, o'quvchining amaliy o'zlashtirganlik darajasini o'rganib boradi. Shu sababli o'qitishning klaster usulida ta'limga ishtirokchilarining vazifalari aniq bo'ladi. Bunda o'qituvchi muvofiqlashtiruvchi va yo'naltiruvchi vazifasini ham bajaradi. Mamalakatimizda o'qitishning klaster usuli bo'yicha ilk tajribalar amalga oshirilmoqda. Buning uchun keng ko'lamli tadqiqotlar ishlarini fanlar kesimida amalga oshirish taqozo etilmoqda. Shu sababli professoro'qituvchilar va mutaxassislarning ilmiy hamkorligi asosida o'qitishning samarasi belgilanishi kerak.

### ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni. Toshkent sh., 2019 yil 29 aprel, PF-5712- son.
2. Molostova N.Yu., Shuvaeva N.Yu. Xorijiy va mahalliy psixologik-pedagogik tadqiqotlarda maktabning ta'limga muhitini aniqlashga zamonaviy yondashuvlar. M.: 2013 yil.
3. Muhammedov G'. I. Pedagogik ta'limga innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija. –Xalq so'zi, jamiyat, 15 fevral 2019 y.
4. Toshpo'latov M. Klaster: mohiyat, samara va istiqbol. - <http://www.biznes-daily.uz/ru/mening-mulkim/53616-klastr-mohiyat-samara-vaistiqbol>
5. Рашидов Диловар Нажмиддинович, & Холбоев Йигитали Авганович (2022). КОРХОНА ВА ТАШКИЛОТЛАРДА ИЖТИМОЙӢ ҲИМОЯГА МУҲТОЖ ШАҲСЛАР УЧУН ИШ ӦРИНЛАРИНИ ЙӦНАЛИШЛАР

КЕСИМИДА ЗАХИРАЛАШНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ.  
Трансформация моделей корпоративного управления в условиях цифровой  
экономики, 1 (1), 73-78. doi: 10.24412/cl-36899-2022-1-73-78

6. Muxamedov G., Xodjamqulov U. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri:  
ta'rif, tavsif, tasnif.-Chirchiq., 2019.

7. Dilovar Najmiddinovich Rashidov, Sharofat Amonovna Kadirova, &  
Ziyoda Abduvositovna Karimova (2022). МЕННАТ BOZORIDA TENG  
SHARTLARDA RAQOBATLASHA OLMAYDIGANLAR, AYNIQSA  
NOGIRONLARNI ZAXIRALANGAN ISH O'RINLARIGA ISHGA  
JOYLASHTIRISH MUAMMOLARI. Academic research in educational sciences, 3  
(TSTU Conference 2), 281-285.

8. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

9. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)